

2021- yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmi



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'atlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasi bu - korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4499,8 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1034,3 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,1 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

• 121,1 %

Hajmning oshishi

• 1034,3
mlrd. so'm


Xizmatlar hajmi

• 4499,8
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (juridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyul oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 193,6 mlrd. so'mga oshib 752,2 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 14,9 mlrd. so'mga o'sgan va 510,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil VI – diskret (iyun) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2021- yil VII – diskret (iyul) oyining hajmi 64,1 mlrd. so'mga o'sgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yilning VI va VII – diskret oylari o'rtaсидаги farqi 67,4 mlrd. so'mni tashkil etган.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	252,0	115,5
Moliyaviy xizmatlar	966,1	132,5
Transport xizmatlari	1 102,3	109,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	629,4	122,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	103,7	96,5
Savdo xizmatlari	1 001,4	112,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	116,7	123,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	319,6	184,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	53,2	134,0
Ijara xizmatlari	106,2	149,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	131,0	123,1
Shaxsiy xizmatlar	162,5	117,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55,2	116,5
Boshqa xizmatlar	129,9	130,1

Xizmatlar sohasining rivojlanishi


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, % da**
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 24,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (21,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (7,1 %) qayd etildi.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush me'morchilik sohasidagi xizmatlar sohasidagi xizmatlar - 1,2 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari hissasi 2,3 % ga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi**



Yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (84,0 %), ijara xizmatlari (49,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (34,0 %), moliyaviy xizmatlar (32,5 %), boshqa xizmatlar (30,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (23,8 %), da qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmining o'sish sur'ati (3,5 % ga) pasayishi qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi


Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 22,2 % ni tashkil etib, bu 1001,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi 80,0 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 966,1 mlrd. so'mni - tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 709,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ularni ulushi 20,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 256,4 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 32,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ularni o'sish sur'ati 128,6 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadijan haq hisobiqa ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**



Moliyaviy xizmatlar umumi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 85,2 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 12,5 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,3 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)



2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 252,0 mlrd. so'm dara-jasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 115,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 94,8 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,9 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,5 %, noshirlik xizmatlari - 3,1 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

**Ta'lim sohasidagi xizmatlar
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 319,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 184,0 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 96,5 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 103,7 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 92,7 % bilan ustunlik qiladi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, poliklinikalar, klinikalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 53,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar hajmidagi ulushi 1,2 % ni tashkil qildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 134,0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)**

Hudud	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Qoraqalpog'iston respublikasi	4 499,8	121,1	2 334,1
Nukus sh.	2 043,1	125,3	6 286,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	233,3	120,8	1 155,1
Beruniy	258,1	118,4	1 323,4
Bo'zatov	20,1	136,5	920,0
Qorao'zak	74,1	121,3	1 389,5
Kegeyli	73,8	125,6	1 008,2
Qo'ng'iroq	541,6	110,7	4 109,3
Qonliko'l	63,4	120,9	1 224,8
Mo'ynoq	44,2	121,1	1 359,7
Nukus t.	66,5	118,6	1 299,7
Taxiatosh	92,8	110,2	1 240,5
Taxtako'pir	53,9	123,8	1 335,3
To'rtko'l	348,2	120,1	1 595,3
Xo'jayli	190,7	119,8	1 532,7
Chimboy	130,8	122,4	1 153,3
Shumanay	57,0	122,7	1 007,4
Ellikqal'a	208,2	119,6	1 281,8

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (2043,1 mlrd. so'm), Qo'ng'irot tumani (541,6 mlrd. so'm), To'rtko'l tumani (348,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2021-yanvar-iyul yilning oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2334,1 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 2334,1 ming so'm

O'sish sur'ati, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da - 119,6 %

Hajmning o'sishi, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, - 514,2 ming so'mga



Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariiga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamонавиy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 61-224-92-15